

## JADIDLAR – MILLAT FIDOIYILARI

*DXX CHQ “Yosh chegarachilar”  
HAL tarix fani o‘qituvchisi  
Jumayev Bekzod Boymurod o‘g‘li*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit, shuningdek Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g‘oyasini ilgari suradilar. Jadidlar milliy birlik, ma’naviy-ma’rifiy isloxotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo‘llarini izlaganlar. Ushbu maqolada yuqorida qayd etilgan fikrlar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Turkiston, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo‘jayev, So‘fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat Jadidchilik, milliy ko‘tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g‘oya;

**Abstract:** This article examines the emergence of the Jadidist movement in Turkestan. The historical circumstances of Jadidism's emergence in Turkestan, as well as the Turkestan Jadids, advanced the idea of liberating the people from backwardness and religious prejudice, reforming the principles of Sharia, spreading public education, and achieving national autonomy. The Jadids sought ways to renew and elevate society through national unity and spiritual and educational reforms. This article examines the points mentioned above.

**Key words:** Turkestan, Behbudi, Fitrat, Cholpon, Abdullah Kadiri, Abdullah Avloni, Munavvarkori, Fayzulla Khodjaev, Sofizoda, Tavallo, Ishakjon Ibrat Jadidchilik, national rise, press, autonomy, mother of national education.

## KIRISH

XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma’rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid’atlarni isloh qilish fikri paydo bo‘la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya’ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha “jadid” so‘zidan olingan bo‘lib “yangi” degan ma’noni bildiradi). O’sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya’ni feodal-o‘rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo‘lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko‘p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi [1]. Bu qarshi

kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o'zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g'oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos yo'nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Mazkur tadqiqot jarayonida Jadidchilik harakatining tarixiy tashkil topishi obyektiv ochib berildi. Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda jadidchilar maktabi va ularning harakatlarini mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot jarayonida Abdulla Avloniyning "Tarjimai hol" Tanlangan asarlar 2-jildlik va Munavvarqori Abdurashidxonning "Qizil O'zbekiston" nomli asarlari metodologik manba sifatida olindi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugun biz yuzma-yuz bo'lib turgan milliy g'oya asoslari, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidchilarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo'yilgan va qizg'in muhokama qilingan edi. Ma'rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallash g'oyasi millatning ko'pchiligi tomonidan anglanishi kerak. Darhaqiqat, jadidchilarimiz olib borgan barcha ishlar, matbuotning yo'lga qo'yilishi, "usuli jadid" maktabi nazariyasi va amaliyoti, teatrchilik, hammahammasi shunga xizmat qildirildi. Shu tariqa har bir g'oyaning milliy g'oyaga aylanishi, jadidchilarimiz fikricha ikki shartni taqozo etadi. 1. G'oya millatning tub, asl ehtiyojlaridan, turish-turmushidan, asosiy an'analaridan, o'zligidan va tabiiyki, imkoniyatidan kelib chiqmog'i lozim. 2. Mazkur g'oya millat tomonidan anglanishi, his qilinishi, boshqacha aytganda, ongiga joylashib, yuragidagi o'tga aylanmog'i, so'ngsiz ishtiyoq hosil qilmog'i kerak. Turkistonda jadidchilik harakatining faol tashkilotchi – ishtirokchilari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bular: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Saidahmad Siddiqiy – Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, Abdulvohid Burxonov, Sadridin Ayniy, Abudulqodir Muxiddinov (Buxoro), Obidjon

Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm)lar nomini birinchilar safida keltirishimiz mumkin.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari Turkistonni o'rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, "Usuli qadim" ni inkor etgan holda o'lkani, xalqni,

millatni zamonaviy taraqqiy yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat ko'rish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy pul birligi, milliy qushin tuzish rus taraqqiyparvarlari, ma'rifatchilarining Turkiston o'lkasida ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatish uchun imkoniyatlar yaratish edi. Demak, Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi asta-sekin bo'lsada milliy ozodlik mafkurasiga asoslanib bordi. Bu jarayon o'lkadagi maxalliy xalqning ongiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffak bo'ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma'rifatchilik g'oyalari tarkala boshladi, yangi ta'lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi [2]. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko'plab ma'rifatchilar yetishib chiqdi.

Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko'rsatdi.

- maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash),
- san'at (badiiy adabiyot, teatr)
- matbuot. (gazeta jurnallar)

Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida, uzligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi.

Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit bilan birga, XIX asrning so'nggi choragida uyg'ongan ma'rifatchilik, ma'rifatparvarlik qarashlarining ta'siri katta bo'ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga e'tibor bersak, marifatparvarlik mafkurasi demokratik va milliy-vatanparvarlik harakatlarining g'oyaviy mazmunini tashkil etganligini ko'ramiz. Mamlakatimizda marifatparvarlik g'oyasining kelib chiqishiga asosiy sabab, birinchidan, rus istilochilik siyosatining chuqurlashib borishi natijasida paydo bo'lgan milliy ozodlik harakatlari, ikkinchidan, g'arbdan kirib kelayotgan demokratik harakatlarning istilochilar tomonidan bo'g'ib qo'yilishi, uchinchidan, millatparvar - fidoiy kishilarning qattiq takib ostiga olinganligi va xatto ularning qatl etila boshlaganligi edi.

Jadidchilik harakati vakillari o'zlarining ma'rifatparvarlik mafkurasiga bir tomondan o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan demokratik g'oyalarni: ilm o'rganish, fan va texnika yutuqlaridan baxramand bo'lish, ilmiy-tabiiy fanlarni rivojlantirish, so'z va fikr erkinligini joriy qilish, demokratik davlat q'urilishiga asoslangan milliy davlatchilikni vujudga keltirish, milliy g'oyalar qatlamini shakllantirish, adabiyot va san'atning zamonaviy janrlarini rivojlantirish, ikkinchi tomondan mustamlakachilik

siyosati ta'siri ostida o'z milliy qiyofasini yo'qotayotgan turkiy til va milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma'naviy-axlokiy takomillarni yanada kuchaytirish, milliy o'zligini anglash, milliy ong, milliy tafakkurni va diniy e'tiqodlarni mustaxkamlash kabi g'oyalarni asos qilib oladilar. Albatta bu vazifalarni amalga oshirishda an'anaviy islom dini, shariat asoslari va xadislari ham o'z ta'sir kuchini saqlab turgan ta'limotga suyanadilar.

Jadidchilar o'zlarining ilg'or g'oyalarini Xalq o'rtasida tarqatish uchun milliy matbaachilikni rivojlantirish orqali, zamonaviy ta'lim sistemasini joriy qilish, ilg'or g'arb mamlakatlariga maxalliy yoshlarni o'qishga junatish yo'li bilan amalga oshirishga harakat qildilar. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Shu jihatdan o'zbek, va tojik xalqlarining mutafakkirlari Ahmad Donishning (1827 - 1897) "Navodir ul – vaqoe" asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish lozimligini ta'kidlaydi. Ayni paytda, an'anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho - hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san'atning gullab yashnashiga yo'l ochib bersa – xalq hayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi. U, hukmdor donishmandlik fazilatiga albatta ega bo'lishi lozim, davlatning mohiyatini aql belgilaydi, degan xulosaga keladi: oqilona boshqarilgan mamlakat aholisigina ma'rifatli va yuksak axloq egalari bo'la oladi. Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishidir.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida milliy uyg'onish va milliy ong yuksalishida katta rol o'ynagan. Jadidchilik g'oyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Fayzullo Xo'jayev, So'fizoda, Tavallo, Ishoqjon Ibrat kabilar g'oyat og'ir sharoitlarda targ'ib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini yerga urishga yo'l qo'ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Ma'rifatchi jadidchilar og'ir moddiy qiyinchiliklar, g'oyaviysiyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma'naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas'uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor to'yg'usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab yetganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o'z zimmalariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o'zlari dars berar, o'quv qo'llanmalari yozar, nashr etar va bu yo'lda jonbozlik ko'rsatar edilar. Bu yo'lda hatto

o'z mablag'larini ayamaganlar. Bunday saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur.

Bugunda ma'rifatparvar-jadidchilarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviyat va ma'rifatini, milliy qadriyatlar va ongini yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, avlodlar qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Mustaqillik tufayli ma'rifatchi-jadidlarning nomlari tiklanayapti, tavallud topgan kunlari tantanali nishonlanayapti, asarlari qayta-qayta chop etilayapti. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqimizning madaniy-ma'naviy, qadriyatlar sifatida xanuzgacha saqlanib kelmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Avloniy A. "Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., "Ma'naviyat", 1998 yil 288-bet".
2. Munavvarqori A. "Qizil O'zbekiston" 1927 yil, 7iyun. Ziyo uz. Com.
3. Qosimov B. "Milliy uyg'onish", T., "Sharq", 2004 yil, 53-bet.
4. Toshqulov J. Yosh xivaliklar: siyosiy qarashlarining tadrijiy rivojlanishi// Xalq va demokratiya, 1992, 3-4-son.
5. Behbudiy B. "Behbudiy kutubxonasi", "Oyina" jurnali 26 aprel, №27. Tanlangan asarlar. Jild-II.-T.: Akademnashr, -2018yil 14-bet.
6. K. Xoshimov, S. Nishonova "Pedagogika tarixi". –T.:2005 yil 213 b.
7. Muhammadjonova L., Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007.
8. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. -T.: Davr-press, 2006.
9. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. G. Niyozov, Q. Axmedov, Q. Tojiboev O'zbekiston 2010 yil.